

# Mavzu: Uchburchak yuzasini topishga doir masalalar yechish




1. Muntazam uchburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan uning tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi  $\sqrt{3}$  ga teng. Uchburchakning yuzini toping.
2. Teng yonli uchburchakning asosi 18 ga, yuzi 108 ga teng. Shu uchburchakning yon tomonini toping.
3. ABC uchburchakning AB va BC tomonlari orasidagi burchagi  $30^{\circ}$  ga teng. Agar AB va BC tomonlar orasidagi burchak  $120^{\circ}$  ga orttirilsa, ABC uchburchakning yuzi qanday o'zgaradi?
4. Teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 1225 ga teng bo'lsa, uning gipotenuzasini toping.
5. Teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi  $5\sqrt{2}$  ga teng. Uning yuzini hisoblang.

6. Ushbu  $y = -x - 1$ ,  $y = x - 1$  to'g'ri chiziqlar va  $Ox$  o'qi bilan chegaralangan uchburchakning yuzini toping.
7. Muntazam uchburchakning yuzi 64 ga teng. Uning perimetrini toping.
8. ABC uchburchakda  $\angle C = 135^\circ$ ,  $AC = 6$  va  $BD$  balandlik 2 ga teng. ABD uchburchakning yuzini toping.
9. ABC uchburchakning AD medianasi 6 ga teng, AC tomoni 8 ga va ular orasidagi burchak  $30^\circ$  ga teng. ABC uchburchakning yuzini toping.
10. To'g'ri burchakli uchburchak katetlarining gipotenuzadagi proyeksiyalari 8 va 2 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.
11. To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 84 ga, gipotenuzasi 37 ga teng. Bu uchburchakning yuzini toping.

**12** To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi  $96 \text{ sm}^2$  ga teng. Agar katetlaridan biri ikkinchisining  $\frac{3}{4}$  qismiga teng bo'lsa, shu uchburchakning katetlarini toping.

**13** Tomoni 3 ga teng bo'lgan kvadrat 9 ta teng kvadratchalarga bo'lindi (149- rasm).  $ABC$  uchburchakning yuzi nimaga teng?

149



14. ABC uchburchakda  $A=30^\circ$ ,  $AB=AC=4$ . A uchidan tushirilgan balandlik uzunligini toping.

15. ABC uchburchakning AD medianasi 6 ga teng. AC tomoni 8 ga va ular orasidagi burchak  $30^\circ$  ga teng. ABC uchburchakning yuzini toping.